

MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI VA SAMARALI METODLARI

*N.O.Saidova – FarDU, maktabgacha
ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)*

*Shahrizoda Tojaliyeva – FarDU,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning ahamiyati, uning bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni hamda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar yoritilgan. Shuningdek, bugungi kundagi dolzarb ekologik muammolar va ularni bartaraf etishda ekologik tarbiyaning ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik madaniyat, ekologik metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность экологического образования в системе дошкольного образования и его роль в всестороннем развитии личности детей, а также эффективные методы формирования экологического сознания и культуры. Кроме того, обсуждаются актуальные экологического образования в их решении.

Ключевые слова: экология, экологическое образование, экологическая осведомленность, экологическая деятельность, экологическая культура, экологические методы.

Abstract: This article discusses the importance of environmental education in the preschool education system, its role in the comprehensive development of children's personalities, and effective methods for forming environmental awareness and culture. It also discusses current environmental problems and the importance of environmental education in solving them.

Keywords: ecology, ecological education, ecological awareness, ecological activity, ecological culture, ecological methods.

Bugungi kunda ekologik muammolarning kuchayib borishi insoniyat oldiga atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa, avvalo, maktabgacha ta'lim bosqichida beriladigan ekologik tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki maktabgacha yosh davrida bolaning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllana boshlaydi.

Ekologiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, lug'aviy jihatdan ekologiya (yunon. "oikos" – yashash, uy makon, "logos" fan ta'limot) – organizmlarning yashash joyi, makoni ma'nosini anglatadi.

Ekologiya fani tirik organizmlarning ma'lum bir muhitda yashash qonuniyatlarini, ya'ni organizmlarning o'zaro va ularni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan hayot tarzini o'rganadi. Mazmunan "ekologiya" tushunchasi tirik mavjudotlar, shu jumladan, odamning yashash sharoiti va tashqi muhit bilan o'zaro munosbatini anglatadi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

847-yilda Muhammad Muso al-Xorazmiy "Kitob surat al-arz" degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, gular, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar – Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Farobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, "Kitob qolhaji va al-Miqdor", "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al-hayvon" nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi. Farobiy o'zining "Ixsoa al-ulum va al-ta'rif" asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog'iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi.

Abu Rayhon Beruniy koinoydagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan narsa narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. U tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Ekin van asl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi".

Abu Ali ibn Sino jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biridir. Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur "Tib qonunlari" nomli shoh asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. "Agar dunyoda chang va g'ubor bo'lmasa insoniyat ming yil umr ko'rardi" deb aytgan edi. Olimning juda ko'p qimmatli fikrlari, jumladan, uning inson sog'lig'ini saqlash haqidagi, parhez, gigiyena to'g'risidagi xulosa va maslahatlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni tavsiya etgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat shoir bo'lmay, balki tabiatshunos ham bo'lgan. Boburning eng yirik asari "Boburnoma" asarida shoirning ko'rgan

kechirganlari, brogan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlar, hayvonot, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar, manbalarga boy. Unda yer, suv, havo turli tabiat hodisalariga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. Bobur har bir hududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo, joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi haqida ma'lumotlar beriladi.

Ekologik tarbiya – bu bolalarda tabiatga nisbatan ongli, ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yosh davrida bola atrof-muhitni bevosita kuzatish, his qilish va tajriba orqali anglaydi. Shu sababli ekologik tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bolalarda tabiatga muhabbat va qiziqish uyg'otadi;
- ekologik ong va madaniyat asoslarini shakllantiradi;
- tabiatni asrash, muhofaza qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- bolalarning axloqiy, estetik va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik tarbiya orqali bola nafaqat tabiatni biladi, balki o'zining tabiat oldidagi mas'uliyatini ham anglay boshlaydi.

Keying davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotiga “ekologik ta'lim”, “ekologik tarbiya”, “ekologik ong”, “ekologik faoliyat”, “ekologik mas'uliyat”, “ekologik e'tiqod”, “ekologik ma'rifat”, “ekologik madaniyat” va boshqa bir qator atamalar va ular bilan bog'liq tushunchalar kirib keldi.

Ekologik ta'lim ekologik ma'rifatning asosiy jihati bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avlodlardan avlodga o'tkazilishidir. Ekologik ta'lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ekologik tarbiya – shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishga qaratilgan pedagogic faoliyat va jarayon.

Ekologik ong – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va xatti-harakatini tartibga solib turadigan ruhiyatning oliy shakli.

Ekologik faoliyat – esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik madaniyat – shaxs yoki jamiyatning mavjud tabiatning tabiiy, atrof-muhitning esa sanitariya holatini muhofaza qilish yo'lida mavjud axloqiy-ekologik me'yor, talablarga muvofiq faoliyat ko'rsatishi. Bu atama shaxs jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo'llaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning maqsadi ularni tabiatni sevadigan, asrab-avaylaydigan, odobli erkin fikrlovchi, milli g'urur egasi, barkamol sog'lom avlod etib tarbiyalashdan iborat.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. Bolalarga mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tarkib toptirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurni boyitish.
3. Bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi mas'uliyatni shakllantirish.
4. Bolalarda tabiatda o'zini tutish malakasini, atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg'usini tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiyani tashkil etishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Kuzatish metodi

Bolalarni tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ekologik tushunchalar shakllantiriladi.

2. Amaliy faoliyat metodi

Gullarni parvarishlash, ko'chat ekish, suvni tejash kabi mashg'ulotlar orqali bolalarda mas'uliyat hissi rivojlanadi.

3. Suhbat va savol-javob metodi

Ekologik mavzularda olib boriladigan suhbatlar bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi.

4. Didaktik o'yinlar

Ekologik mazmundagi o'yinlar bolalarning qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Sayr va ekskursiyalar

Tabiat qo'ynida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarda chuqur taassurot qoldiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolalarning dunyoqarashi, tabiatga bo'lgan munosabati, axloqiy va ijtimoiy fazilatlari shakllana boshlaydi. Ushbu jarayonda ekologik tarbiya bolalarda tabiatni asrash, unga mehr bilan munosabatda bo'lish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ekologik tarbiya nafaqat bolalarga tabiat haqidagi bilimlarni berish, balki ularda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Kuzatish, amaliy faoliyat, didaktik o'yinlar, suhbat va sayr kabi metodlardan kompleks foydalanish bolalarning bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa bolalarning shaxs sifatida barkamol bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar – atrof-muhitning ifloslanishi, suv va tabiiy resurslarning tanqisligi, iqlim o'zgarishi kabi holatlar ekologik tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tizimli, uzluksiz va maqsadli tashkil etish kelajak avlodning ekologik mas'uliyatli shaxs bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ekologik tarbiya bolalarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda ekologik mazmundagi mashg'ulotlar orqali ekologik madaniyatli, tabiatni asrashga mas'ul bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. R. Qodirova, SH. Q. Toshpo'latova, N. M. Kayumova, M. N. A'zamova
2. Maktabgacha pedagogika. – Tafakkur, 2019.
3. SH. Sodiqova Maktabgacha pedagogika, - Toshkent-2022.
4. D. Mirzayeva Maktabgacha pedagogika o'quv qo'llanma – Toshkent-2022
5. Olimovna, S. N. (2024). BOSHLANG'ICH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MIQDORIY TUSHUNCHALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 47-47.
6. Saidova, N. O. "ILK MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O'YINLAR." *IMRAS 8.1* (2025): 66-71.
7. Saidova, N. O. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV, INNOVATSION YONDASHUVLAR." *ZA'MONAVIY TA'LIM ISLOHOTLARI VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI 1.3* (2025): 440-442.
8. Saidova, N. O. "ILK MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O'YINLAR." *IMRAS 8.1* (2025): 66-71.
9. Ahmadjonova, D. M., and N. O. Saidova. "MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI NUQSONLI BOLALARDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YO'LLARI." (2024).
10. Saidova N. O., Alijonova H. Maktabgacha ta'lim tashkilotida zamonaviy innovatsion texnologiyalar //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 3.
11. Saidova N. O., Ahmadjonova D. M. POSSIBILITY OF SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS TO USE INTERACTIVE METHODS FOR THE EXPLANATION OF MATHEMATICAL CONCEPTIONS BY PREPARATORY GROUP //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 254-258.